

O'ZBEKISTON-ISTE'DODLI YOSHLAR HOMIYSI MAQOMIDA

Shodmonova Mohira Raufovna

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar

universiteti magistranti

shodmonovamohira@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlari, qarorlar va farmoyishlar ko`rib chiqilib, yoshlarga qaratilayotgan e`tibor xususida so`z boradi. Mutolaa davomida bugungi kunda yoshlarga yaratilayotgan, ayniqsa, ularning xorijiy davlatlarda o`qishlri uchun yaaratilayotgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar haqida tanishish mumkin.

Kalit so`zlar: modernizm, “Umid” jamg`armasi, “El-yurt umidi”, “Jamiyat xayriya”, Yoshlar ishlari agentligi.

Kirish.

Soat sayin rivojlanib, yangilanib borayotgan asrimizda modernistik oqim bo`ylab suzish uchun har soha va har bir qatlamga, ayniqsa, yoshlar qatlamiga alohida e`tibor qaratilishi talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.07.2021-yildagi PF-62-60-son farmoni quyidagicha fikrlar bilan boshlangani ham bejiz emas: “Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azm-u shijoatli yoshlarga e`tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi”¹⁸. Zero, yoshlar-jamiyat poydevori. Yoshlarga e`tibor-kelajakka e`tibor.

Asosiy qism.

Bugungi kunda prezidentimiz tashabbuslari bilan yoshlarning ta`lim olishlari, iqtidorli yoshlarning iqtidorlarini namoyish qila olishlari, nufuzli mamalakatlarda ham imtiyozlar asosida o`qish, ishslash kabilar uchun yetarlicha sharoitlar yaratib

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.07.2021-yildagi PF-6260-son farmoni. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chors-tadbirlar to'g'risida.

berilmoqda. 2017-yildan beri 30-iyun sanasining “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanishi, Yoshlar ishlari agentligi va uning bo`limlari(2020) tuzilishi, “Yoshlarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi VMQ(2021), iste`dodli yoshlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida “Ulug`bek” jamg`armasining tuzlishi (2022) va shu kabi bir qator qaror va farmonlarning imzolanishi yuqoridagi fikrning isbotiga xizmat qiladi.

Yoshlar masalasi barcha davrlarda ham dolzarb bo`lib kelgan. Buning asosiy sabablaridan yana biri yoshlar mehnat resurslarining yarmidan ko`pini tashkil qilayotganidir. Xususan, 2022-yilgi ma`lumotlarga ko`ra O`zbekiston aholisining 64 foizini 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil qilar ekan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so`zlagan nutqida yoshlarga oid siyosatga ham to`xtalib aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo`lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro`yobga chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta`kidlab o`tdi. Bu sohada Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o`rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko`maklashish bo`yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030” dasturini ishlab chiqish taklif etildi. 1999-yil 17-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasi o`zining 54/120-sonli rezolyutsiyasi bilan Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug`ullanuvchi vazirlar konferensiyasining 12-avgustni Xalqaro yoshlar kuni deb e`lon qilish haqidagi tavsiyasini ma`qullagan edi. Ushbu kunda jahon hamjamiatining diqqat-e`tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi.

Davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri yoshlarga qaratilgani bois oxirgi yillarda qilingan yangiliklar, amalga oshirilayotgan tashabbuskor rejalarining asosiy qismi yoshlarning ta`lim olishi, ijtimoiy hayotinin yaxshilash kabi sohalarga oid. Mamlakatimiz rahbari yoshlarga oid davlat siyosatini belgilari ekan, unda 14yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan fuqarolarning huquq va burchlari doirasida barcha sharoitlar yaratilishi iobatga olindi. Yoshlar ishlari agentligining faoliyati uyushgan va

uyushmagan yoshlarni ijtimoiy sohalarga jalb qilish, ular orasida bilimdonlikni oshishining sezilarli o'sishiga olib kelyapti. Binobarin, "Yosh kitobxon", "Zukko kitobxon", "Eng yaxshi yosh kitobxon oila" kabi tanlovlarning o'tkazilishi Respublika miqyosida kitobxonlikni targ'ib qilishning muvaffaqiyatli usullaridan biri bo'ldi. Shu o'rinda "Yosh kitobxon" tanloviga alohida to'xtalib o'tish joiz. Ushbu tanlovda O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan barcha yoshlar ishtirok etishi belgilangan ro`yxatdagi kitoblar bo'yicha bilimlarini 4ta bosqichda sinab ko'rishi mumkin bo'lgan eng yirik kitobxonlik tanlovidir. Unda 300 mingdan ziyod yoshlar ishtirok etib, g`oliblikni qo'lga kiritganlari izdoshlari, tengdoshlarini ham kitobxonlikka targ'ib qilib kelishyapti. "Yosh avlod haqida g'amxo'rlik ko'rsatilar ekan, avvalo ular bizning tayanchimiz va ertangi kelajagimizning davomchilari ekanligi, yoshlarga oid qonunchilik tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish qulay huquqiy va tashkiliy iqtisodiy imkoniyatlar barpo qilish, ularning kasb-hunar o'rganishlari, mehnat qilishlari, erkin ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish ishlari diqqat markazimizda turadi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi keljak avlodga, yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas.", -deydi Oydin Ibrohimova, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi Matbuot xizmati yetakchi mutaxassisi.

Bugungi texnologiyalarga asoslangan globallashuv zamonida yangiliklar yashin tezligida o'zgarib bormoqda. Rivojlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lishini istagan har qanday davlat dunyo hamjamiyatida tan olingan, tan olinayotgan davlatlar siyosati bilan tanishib, ular bilan tajriba almashishga harakat qiladi, shu jumladan, biz ham. Jadidlar davridan boshlangan xorijiy ta'lim bilan tanishib, ular bilan tmutaxassis almashish jarayonlari yanada kengaytirilib, shu yo`nalishda yoshlarni qo'llab-

quvvatlash uchun “Jamiyati xayriya” tashkilotlariga o’xhash jamg`armalar faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan biri 1997-yilda ochilgan “Umid” jamg`armasidir. "Umid" jamg`armasi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekiston fuqarolarining xorijda ta’lim olishini tashkil etish maqsadida tashkil etilgan. Birinchi talabalar 1997-yilda o‘qishga yuborilgan. Talabalar dunyoning boshqa mamlakatlarida, jumladan Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyada ham tahsil olishgan. Talabalarning minimal soni Fransiya va Italiyada o‘qitilgan. Keyinchalik bir qancha moliyaviy muammolar sabab bu jamg`arma sobiq “Ustoz” jamgarmasi bilan “Iste`dod” jamg`armasiga birlashtirilib yuborligan. Ushbu jamg`arma yoshlarning chet tillarini bilishlari va xorijda ta`lim olishlariga ijobiylashtirilgan. Iste`dod “jamg`armasi tomonidan sobiq bitiruvchilar uchun muntazam ravishda ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazib kelinmoqda. Talabalarning ishlari bir necha turkum to‘plamlarda nashr etilgan.

“Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2021 yildagi PF-6168-sonli Farmoni Iqtidorli va istiqbolli, ayniqsa respublika hududlaridan yosh mutaxassislarni izlab topish va tanlashga qaratilgan faoliyatni tubdan takomillashtirish va yanada modernizatsiyalash, ularning xorijdagi nufuzli ta’lim va ilmiy muassasalarda, ishlab chiqarish, innovatsion va boshqa kompaniyalarda maqsadli ta’lim olishini hamda stajirovkadan o‘tishini tashkil etish, professional, chuqr bilimga ega, zamonaviy fikrlaydigan va vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalangan yangi avlod kadrlarini shakllantirish va ularni davlat xizmatiga jalb etish borasida barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida¹⁹ “El-yurt umidi “ jamg`armasining maqsad va vazifalari, vakolatlari belgilab qo`yildi. Unga ko`ra jamg`arma faoliyatidan :

¹⁹ Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2021 yildagi PF-6168-sonli Farmoni

- iqtidorli va istiqbolli, ayniqsa respublika hududlaridan davlat xizmatchilarini tizimli ravishda izlab topish, tanlash va rag‘batlantirish, ularning xorijdagi nufuzli ta’lim, ilmiy va boshqa muassasalarda ta’lim olishini va stajirovkadan o‘tishini tashkil etish;
- professional, chuqur bilimga ega, zamonaviy fikrlaydigan va vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yangi avlod kadrlarini shakllantirish va ularni davlat xizmatiga jalg etishga ko‘maklashish;
- rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda davlat xizmati va ta’lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etish;
- xorijiy ta’lim, ilmiy va boshqa tashkilotlar, olimlar va ekspertlar, shuningdek, vatandoshlar bilan hamkorlikda onlayn platformalarga asoslangan masofaviy ta’lim dasturlari, o‘quv kurslari va boshqa ta’lim, ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalarni amalga oshirish kabilalar o``rin oldi.

Bulardan tashqari, ochiq stipendiya tanlovlari asosida xorijda yoshlarning istalgan bosqichda (bakalavr, magistrature, doktorantura) ta`lim olishlari jamg` armaning asosiy dasturlari sifatida e`tirof etildi.

Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 7-martda «Davlat organlari va tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan yosh mutaxassislar va yosh vatandoshlarga zarur shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [101-son] qarorini qabul qildi. Ushbu qarorga ko`ra, 2022-yildan boshlab xorijdagi nufuzli OTMda ta`lim olayotgan, nufuzli kompaniyalarda ishlayotgan o`zbekistonlik yoshlarga vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda ishlashlari uchun sharoit yaratib berish belgilab qo`yildi. Shu bilan birga, ularning turar joy bilan ta`minlanishi, kamida 2 yil ishlaganlariga esa uy-joy uchun ipoteka kreditining dastlabki badali va foizlarining bir qismini qoplashga subsidiya berilishi uchun ustuvor rejalar kiritildi. O`sha yilning 1-iyuniga qadar “Yosh vatandoshlar reyestri” ishga tushirilib, u vatandosh olimlar, ekspert va tadqiqotchilarni ochiq ro`yxatdan o`tkazib platformaga integratsiya qilishi belgilab berildi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi. “Vatandoshlar” fondining tashkil topishini ham

xorijdagi yoshlarni qo`llab-quvvatlash uchun qilinayotgan ishlarning asosiy qismi deyishimiz mumkin. Fond vakolat va majburiyatlariga xorijiy davlatlar bilan migratsiya va ta`lim sohasida shartnomaviy-huquqiy hamkorlikni kengaytirish kabi masalalarning kiritilgani buning yaqqol misolidir.

Xorijda ta`lim olish studentlardan katta mas`uliyat va kuchni talab qilishi bilan birga ularga imkoniyatlar ehsigini ham ochadi. Misol uchun, har qanday xorijiy oliygoh uchun kamida bitta xorijiy tilni bilish talab etiladi va bu yoshlarning til o`rganishga nisbatan qarashlarini o`zgartirib, ularni ilmli bo`lishlari uchun turtki vazifasini o`taydi. O`qiyotgan oliygohining dasturlari, sharoitlari bilan tanishib, yutuqlarini o`zlashtirish, kamchiliklarini o`rganishga, shu bilan birga millatlararo kommunikatsiya etikasiga amal qilish va eng asosiysi, har xil yurtdan borgan, turli tajribadagi o`rganuchi va o`rgatuvchilardan professional ko`nikma-tajribakar, kasbiy mahoratlarni o`rgana oladi.

Yoshlarni xorijda ta`lim olishlari, mukammal kasbiy salohiyatga ega kadr bo`lib yetishishlari uchun nafaqat davlat tashkilotlari, balki xususiy ta`lim markazlari ham o`z hissalarini qo'shib kelmoqda. “Yoshlar ishlari agentligi” tomonidan tashkil etilgan birgina “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida yoshlarning xorijiy tillarni o`rganishlari va xorijda ta`lim olishga qiziqiahlarini, dunyoqarashlarini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirildi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamalakatimizda amalga osjirlayotgan har 3ta islohotning 2tasi yoshlar siyosatiga oid bo`lib, ayniqsa, ularning xorijda tahsil olib, kelajakda o`z kasbining ustasi bo`lishlari uchun yo`naltirilgan. Jadidlar faoliyati davrida boshlangan va ma`lum muddat bir tomonlama xizmat qilgan qo`shma ta`lim dasturlari bugungi kunga kelib tizimli ravishda amalga oshiriilib kelinmoqda. O`zbekiston Respublikasi yoshlarining kelajagi hukumatimiz tomonidan dolzarb masala sifatida ko`rilib, ularning har qanday sohada-o`qish, ishslash, kasb-hunar bilan shug`ullanishlariga sharoitlar yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.07.2021-yildagi PF-6260-sodan farmoni. Yoshlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo`shimcha chors-tadbirlar to`g`risida
2. Lex.uz O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2021 yildagi PF-6168-sodli Farmoni
3. O`zbekiston Respublikasining Ta`lim to`g`risidagi Qonuni yangi tahriri. 2020-yil, 637-sodli O`RQ.
4. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida 29.10.2020yildagi PF-6097-sod.